


## JIZZAX VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2025- yil 1- avgust holatiga ko'ra

- I. Korxonalar va tashkilotlarning soni
- II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar
- III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
- IV. Korxonalar va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

### I. Korxonalar va tashkilotlarning soni

2025- yil 1- avgust holatiga ko'ra, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (dehqon va fermer xo'jaliklari bundan mustasno) 18 301 tani tashkil etadi, shundan 15 128 tasi yoki 82,7 foizi kichik korxonalar va mikrofirmalardir. 2024 yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 95,8 foizni, jumladan, kichik biznes va mikrofirmalarda – 95,6 foizni tashkil etdi.



**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (birlikda).**



Soni



O'sish sur'ati

	Korxonalar va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
<b>2025</b>	18 301	15 214	15 128
<b>2024</b>	19 103	15 818	15 903
<b>2023</b>	20 137	17 013	16 934
<b>2022</b>	24 763	21 425	21 495
<b>2021</b>	22 754	19 443	19 515

Hududlar bo'yicha eng ko'p faol korxonalar va tashkilotlar Jizzax shahrida – 26,6 foiz, Sharof Rashidov – 14,4 foiz, G'allaorol – 9,2 foiz va Zomin – 8,8 foiz tumanlarda faoliyat ko'rsatmoqda.

Tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarining umumiy sonidagi salmoqli ulushi Jizzax shahrida – 27,4 foiz va 27,3 foiz, Sharof Rashidov – 15,1 va 15,1 foiz, G'allaorol – 9,1 foiz va 9,1 foiz hamda Zomin – 8,7 foiz va 8,7 foiz tumanlarga to'g'ri keldi

	Korxonalar va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
Jizzax shahar	4 863	4 131	4 163
Arnasoy tumani	881	759	760
Baxmal tumani	1 367	1 092	1 096
G'allaorol tumani	1 682	1 383	1 389
Sharof Rashidov tumani	2 635	2 287	2 298
Do'stlik tumani	644	464	467
Zomin tumani	1 613	1 313	1 323
Zarbdor tumani	849	691	694
Mirzacho'l tumani	639	485	488
Zafarobod tumani	527	418	422
Paxtakor tumani	900	716	720
Forish tumani	1 235	1 021	1 026
Yangiobod tumani	466	368	368

**Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**


[Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

### Korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlarning (tadbirkorlik subyektlari va kichik biznes subyektlarining) eng ko'p qismi "Savdo" tarmog'ida qolmoqda, ularning ulushi 2025-yil 1-avgust holatiga 28,2 foizni (31,1 foiz va 33,9 foiz) tashkil etdi.



### Korxonalar va tashkilotlar


Ikkinchi o'rinda "Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi" 16,0 % (19,0 % va 19,8 %), uchinchi o'rinda "Sanoat" 12,4 % (14,8 % va 14,9 %).

Birgalikda ushbu uch turdagi faoliyat ularning umumiy sonining 50% dan ortig'ini tashkil qiladi.

	Korxonalar va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	2 924	2 883	2 879
Sanoat	2 277	2 272	2 242
Qurilish	1 196	1 180	1 176
Savdo	5 163	5 162	5 152
Tashish va saqlash	376	372	371
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 243	1 240	1 239
Axborot va aloqa	237	222	222
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	375	254	251
Boshqa turlar	4 510	1 629	1 596

## II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar

2025-yil 1-avgust holatiga ko'ra, 15 214 ta faol tijorat korxonalaridan 11 829 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tashkil etilgan bo'lib, ular tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinni egallab turibdi.



### Tadbirkorlik subyektlari


	Tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)	Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi (foizda)
Mas'uliyati cheklangan jamiyat	11 829	77,8
Xususiy korxonalar	1 939	12,7
Oilaviy korxonalar	1 228	8,1
Aksiyadorlik jamiyati	14	0,1
Boshqalar	204	1,3

Shundan kelib chiqib, MChJ lar mamlakatimizda biznes yuritishning eng keng tarqalgan shakli degan xulosaga kelishimiz mumkin.

### III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 226 ta korxonalaridan 97 tasi qo'shma korxonalar va 129 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.



#### Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar

2025- yilning 1- avgust holatiga ko'ra xorijiy investitsiyalar ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, 2024-yilning mos davriga nisbatan 47 taga oshgan. Bu asosan, sanoat sohasida 98 tadan 117 taga (o'sish 19 taga) axborot va aloqa sohasida 12 tadan 25 taga (o'sish 13 taga), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasidagi korxonalar sonining 18 tadan 23 taga, (o'sish 5 taga) ko'payishi hisobiga yetdi.

	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxonalar	Xorijiy korxonalar
<b>Jami:</b>	<b>226</b>	<b>97</b>	<b>129</b>
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	23	13	10
Sanoat	117	63	54
Qurilish	12	6	6
Savdo	27	9	18
Tashish va saqlash	4		4
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	4	1	3
Axborot va aloqa	25	2	23
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1	1	0
Boshqa turlar	13	2	11

### Ayrim davlatlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar tahlil qilinganda, yetakchi o'rinni 71 ta korxonalar bilan Xitoy davlati egalladi. Bu viloyatdagi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 31,4 foizini tashkil etdi. O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritib hissasini qo'shayotgan mamlakatlar orasida Turkiya (21,7 %), Rossiya Federatsiyasi (17,7 %) ham alohida o'rin egallaydi.

	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxonalar	Xorijiy korxonalar
<b>Jami:</b>	<b>226</b>	<b>97</b>	<b>129</b>
Xitoy	71	26	45
Turkiya	49	21	28
Rossiya	40	19	21
Arabiston	5	1	4
AQSH	5	3	2
Boshqalar	56	27	29

#### IV. Korxonalar va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

Registrlarni yuritish bo'yicha statistik faoliyatni amalga oshirish uchun asos bo'lib Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko'rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 539-son qaroriga muvofiq

Korxonalar va tashkilotlarning ma'lumotlari statistik tasniflagichlarga asosan shakllantiriladi.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tuzidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar

va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2025-yil 1-avgust holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



**Metama'lumot uchun havolalar:**

[Metama'lumot Korxonalar va tashkilotlar soni](#)

[Glossariy](#)

[Statistik klassifikatsiyalar](#)

**Mavzuga doir ko'rsatkichlar:**

[Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyati soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni \(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, oylik\)](#)

[Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sanoat yo'nalishida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Qurilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Savdo sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Tashish va saqlash xizmatlari sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Axborot va aloqa sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxonalar va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

---

**Tayyorlash uchun mas'ul:**

Raqamlashtirish va statistik  
regisrlarni yuritish bo'limi

**Ijrochi:**

J. Djuzbayev  
72 221-54-00  
( ichki raqam 2560)

**Manzil:**

130100, Jizzax sh.  
To'qimachilar ko'chasi, 7

---